

**JEK LONDONNING „MARTIN IDEN” ROMANIDA AYOLLAR  
OBRAZINING BADIY TALQINI  
Misirova Xayriniso, 2-bosqich talabasi  
Jizzax davlat pedagogika universiteti**

[njumanova69@mail.ru](mailto:njumanova69@mail.ru)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada dunyo kitobxonlari e'tirofiga sabab bo'lgan Jek Londonning „Martin Iden” romani ba'zi tomonlardan tahlil qilindi. Maqolada Martin yashagan davrdagi Amerika muhiti , ijodkorlik hamda ijod mas'uliyati haqida so'z boradi . Shuningdek maqolada , “Martin Iden” romanida ayollar obrazining badiiy taqiniga ham to'xtalib o'tilgan .

**Kalit so'zlar:** roman, asar, ayollar obrazi, ijod mas'uliyati, inson irodasi, matonat, maqsad, orzu .

Romantizm Yevropa, shuningdek, Amerika adabiyoti va san'atida vujudga kelgan hamda jahon bo'ylab tarqalgan oqim .Romantizm - ispancha „romans” so'zidan olingan bo'lib, bu so'z dastlab qahramonlik ruhidagi qo'shiqni, keyinchalik esa ritsarlar haqidagi katta epik asarni anglatgan .Bu oqimning vujudga kelishiga Buyuk fransuz inqilobidan qoniqmaslik sabab bo'lgan. O'rta asrlarda roman tilida yozilgan har qanday asarga nisbatan roman atamasi qo'llangan .<sup>1</sup>

Jek London nomi bilan dunyo kitobxonlari orasida mashhur bo'lgan amerikalik yozuvchining asl ismi Jon Griffit Chanydir. U oddiy ishchi oilasida tug'ilgan .Shu tufayli bo'lsa kerak mehnat qilib pul topishni juda erta boshlagan .Moddiy muammolar tufayli o'qishni ham tashlashga majbur bo'ladi .Jek London ko'lab hikoyalar, roman va qissalar muallifi hisoblanadi. Uning asarlari hayotiyligi bilan o'sha davrdagi Amerika muhitini, undagi sinfiy tabaqalarni, insonlar hayotini haqqoniy aks ettinganligi bilan ahamiyatlidir. Uning qahramonlari tom ma'nodagi chin insonlardir. Lek London qahramoni Martin singari F.Nitsshe va G. Spenserning falsafiy qarashlari tarafdoi edi. Muallif o'z qarashlari va siyosiy fikrlarini Brissenden obrzazi orqali bayon qiladi. Jek London juda erta vafot etgan bo'lsa-da , o'zidan yorqin iz qoldirdi . Jon Griffit Chaney kitobxonlar uchun qimmatli kutubxona qoldira oldi . Bugungi kunda bu kutubxonaning ixlosmandlari soni ortib bormoqda . „ Martin iden” romani ilk bor bir yil mobaynida „The Pacific Monthly” jurnalida qismlarga bo'lingan holda chop etilgan . Asar 1909-yil kitob holda nashr etilgan . Kitob Qodir Mirmuhamedov tomonidan rus tilidagi tarjimaga assoslangan holda ilk bor o'zbek tiliga tarjima qilingan va G'afur G'ulom nomidagi nashriyotda 25 000 nusxada chop etilgan.<sup>2</sup>

“Martin Iden” biz chin dildan harakat qilsak, hamma narsaga , hattoki, eng qiyin deb hisoblangan narsalarga ham erishishimiz mumkinligini ko'rsatib beradi . Haqiqatdan ham „ Martin Iden” insonlarga o'zligini anglashda , o'z „men” ini topishda , maqsad sari dadil qadam bosishda yaxshi yo'boshlovchidir .

<sup>1</sup> O'zME . Yettinchi jild ,T; 2004-yil. 354-bet

<sup>2</sup> <https://uz.m.wikipedia.org/wik/Martin> Eden ? search Token=ei18mcmkmio5um6dthwlf6g6x

Tarjimon Nurbek Alimov „Martin Iden“ romani haqida yozgan maqolasida shunday deydi : Bu roman eng ko‘p o‘qiladigan asarlar o‘nligiga kirsa ham ajablanmayman. Chunki u xarakterimni shakllantirgan shaxsiy „men“imni topishda yordam bergen asarlardan biridir.<sup>3</sup>

”Martin Iden“ bugungi kun kitobxonlari uchun , nafaqat kitobxonlar ,balki barchamiz uchun ham ibrat maktabi bo‘la oladi . Shuningdek , roman eng qiyin vaqtarda ham chekinmasdan olg‘a borishni , oldimizga maqsad qo‘dikmi unga albatta erishishimiz kerakligini o‘rgtadi . Bu asar insonni o‘z- o‘ziga savol berib unga vijdonan javob berishni o‘rgatadigan va talab qiladigan asardir . Avtobiografik ruhda yozilgan asarda muallif o‘z orzulari va qarashlarini qahramoni Martinga singdirib yuboradi . Asar qahramoni Martin Iden bo‘lib , roman uning nomi bilan ataladi .

Martin samimiyl inson . U maqsadi yo‘lida har qanday mashaqqatga bardosh beradi . Shu bilan birga sodda , shu soddalik uni jamiyatning turfa nayranglari oldida ojiz qilib qo‘yadi . Martin haqiqiy go‘zallik shaydosi , uni qadriga yetadi va intiladi . U juda ko‘p izlanadi , o‘z ustida ishlaydi . Fikrlarida qat‘iy b turadi . Ikkiyuzlamachilik unga begona . Martin sabrli ,lekin jindek shoshqaloqligi bor . Martin oshiq , shu oshiqlik uni yuksak orzular qilshga , ularni amalga oshirishga chorlaydi . Lekin Martin Rufning kamchiliklarini ko‘rolmaydi . Martinni o‘tmishi doim ta’qib qiladi .Martin eng qiyin vaqtarda ham odamiylikka xiyonat qilmaydi. Uning intilishlari tafsinga sazavor . Martin qanchalik sabrli bo‘lmisin , sabrning ham chegarasi bor . Doimiy omadsizliklar, asarlarining chop etilmasligi uni qiyin vaziyatga solib qo‘ydi . Shunday vaqtida u intilgan , borini berib unga munosib bo‘lishga intilgan muhabatti ham uni tark etdi . Martin uchun bu og‘ir zarba bo‘ldi. Doim yashashga , ijodga intilgan insonning hayotga bo‘lgan qiziqishlari so‘ndi .

Ijodkor o‘zining ijodida ( bir misra she’rdan tortib katta -katta doston -u romanlarda ) o‘z fikrlarini , istaklari -yu e’tirozlarini , o‘zi yashagan davrdagi muammolarni badiiy obrazlar vositasida tasvirlaydi. San’atkor badiiy obraz vositasida dunyoni anglaydi . Shu ma’noda obraz adabiyot va san’atning fikrlash usuli , shakli sanaladi .Badiiy obraz borliqning badiiy asardagi aksi . Shunchaki aksi emas , borliqni ijodkor va san’atkor tomonidan tomonidan tahlil qilib qayta ishlangan shakli<sup>4</sup>.Har bir ijodkor o‘z asarini qadrli asarlar qatoridan joy olishini xohlaydi . Asarini o‘qishli chiqishi uchun turli vositalardan foydalanadi . Jek London Martinga uning atrofidagi muhitga qalban va ruhan yaqin . Romanda har bir predmet har bir hodisa yozuvchining mashaqqatli hayot yo‘lidan hikoya qiladi .

Martin aslzodalar jamiyatiga qiziqib qoladi , aniqrog‘i , havas qiladi . Bu tabiiy hol edi . Chunki Martin oddiy oilada tug‘ilib , ishchilar orasida ulg‘aygan . Yillari mehnat bilan o‘tgan uning. Aslzodalarni esa haqiqiy madaniyatli kishilar , ziyoli insonlar deb o‘laydi . Bundan tashqari Martin shu jamiyatga ( aslzodalar) mansub ruf ismli qizni yaxshi ko‘rib qoladi . Oddiy matros

<sup>3</sup> N.Alimov „Jahon adabiyotining eng buyuk asarlari“<https://m.daryo.uz/2019/08/19/matonat-muvoffaqiyatga-erishishning-yagona-yo‘li-martin-iden-romani-haqida/>

<sup>4</sup> D.Quronov . Adabiyotshunoslikka kirish . T; 2004. 62-63-betlar.

uchun bu qo‘l yetmas orzu edi , lekin martin harakat qildi. „ Martin Iden” romanida Ruf , Lizzi ,Gertruda , Mariya ,Merian hamda Missis Morz singari ayollar obrazi bor . Ruf deyarli barcha o‘rinlarda Martinga hamrohlik qladi , shundan bilsa ham bo‘ladi Ruf Martin uchun katta ahamiyatga ega edi . Ruf Martin haqiqiy go‘zallik va poklik timsoli deb hisoblagan va uni sevgan ayol . Martinnig barcha intilishlari sababchisi u , garchi bunga munosib bo‘lmasa ham . Ruf o‘z jamiyatining erkatoy qizi. Hayot qiyinchiliklarini ko‘rmagan bu qiz dunyoni faqat o‘qigan kitoblari orqali anglaydi. Rufni Martinni maqsadlari sari olg‘a borishga undagan bir vosita desak ham bo‘ladi. Chunki Martinning barcha harakatlari Rufga Munosib bo‘lish uchun edi . Afsuski , Matin unga munsib bo‘lguncha uning oldida tura olmadi. Ruf Martinning muvoffaqiyatlariga ishonmadi va uni tashlab ketdi .

Gertruda ukasiga mehribon opa . Vaqt va turmush qiyinchiliklari uni anchayin o‘zgartirgan . Og‘ir mehnat avvalgi Gertrudadan asar ham qoldirmagan . Muallif Gertruda obrazi orqali oddiy ishchilar sinfining ahvolini , ularning turmush qiyinchiliklarini oshib bergen. Lizzi Martinning o‘zi singari ishchilar sinfiga mansub . Martinni chin dildan sevib , uni boricha qabul qila oladi u. Martinning hayotga bo‘lgan qiziqishlaridan , oldingi Martindan mahrum bo‘lganda uni uchratadi . Afsuski juda kech . Lizzi obrazini yaratish orqali muallif bir tarafdan o‘zi mansub ishchilar sinfining hayotini aks ettirgan bo‘lsa , bir tomondan insonlar o‘rtasidagi farq faqat ular mansub jamiyat -u kiygan libosda emas , chin insoniyida ekanini isbotlab bergen . mariya Martin uyida ijarada turadigan kambag‘al olshalik ayol. U yolg‘iz ona . Mariya qashshoq bo‘lsa ham Martinga ko‘p yirdam beradi . Mariya bir etak bolalarini boqish uchun tinmay ishlaydi . U Martinni eng qiyin vaqtida : birorta ham asaralari chop etilmay opalari , hatoki , Ruf ham tashlab ketganida ham yonida tura oldi .Mariya Martin uchun bir vaqlar havas qilgan aslzodalar singari kiyinib , universitetda o‘qimagan bo‘lsa ham u haqiqiy inson . Merian ham Martinning opasi . U ham jamiyatdagi quyi tabaqaning tipik vakili . Missis Morz o‘z o‘rnida mehribon ona . U uzoqdan yaltirab ko‘ringan , aslida esa ichi bo‘sh aslzodalar jamiyatining xonimi . Sahrodagi insonning ko‘ziga sarob qanchalik chiroyli ko‘rinsa , Ruf ham Martinga shunday ko‘rinadi . Mariya yaxshi do‘sit . Lizzi martin aslida borishi kerak bo‘lgan manzil.

„Martin Iden” romanida aslzodalar jamiyatining kirdikorlari va keraksiz qonun - qoidalari mahorat bilan tasvirlanagn . Shuningdek , romanda Amerika mentaliteti , jamiyatdagi tabaqalar va ular o‘rasidagi tafovutlar oshib beriladi .Har bir ijodkor birdaniga mashhur yozuvchi yoki shoir bo‘lib ketolmaydi. Buning uchun yillab vaqt ketadi . Tezda mashhur bo‘lish esa hammaga ham nasib etavermaydi . „Martin Iden” romanida har bir obrazga ma‘lum vazifalar yuklatilgan .Xususan ayollar obrazi o‘zları mansub sinflaring tipik vakillaridir . Ular orqali tabaqalar o‘rtasidagi farqlarni yanada aniqroq ko‘ramiz. Martinni shijoatiga sabriga havas qilsa arziydi . Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinku, har qanday insonni kuchli qiladigan , uni kamol topib rivojlanishiga yordam beradigan yoki aksincha xarob qiladigan ham uning atrofidagi odamlar va jamiyatdir.

### **Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Jek London „ Martin Iden” . Book Media Nashr . T; 2020.
2. N. G‘ulomova „ Ona tili va adabiyoti” . Sharq nashruyot -
3. Quronov . D „ Adabiyotshunoslikka kirish” T;2004.222 bet .
4. Alimov .N „ Muvoffaqiyatga erishishning yagona yo‘li” .
5. „O‘zbekiston milliy ensklopediyasi” . Yetinchi jild. T; 2004 .703
6. Nasiba Jumanova, TSELI I ZADACHI AKTIVATSII, USKORENIYa PEDAGOGICHESKIX TEXNOLOGIY , Jurnal Pedagogiki i psixologii v sovremenном obrazovanii: Tom 1 № 1 (2021): Zamoniyy ta'linda pedagogika va psixologiya fanlari
7. Jumanova, N. (2021). PROFILAKTIKA PSIXOLOGICHESKIX DEFEKTOV V RAZVITII LICHNOSTI. Jurnal Pedagogiki i psixologii v sovremennom obrazovanii, 1(1). izvlecheno ot <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1365>
8. Jumanova, N. (2021). XARAKTERISTIKI PROBUJDENIYa STARSHEY GRUPPY DETEY LYUBOVЬ K LITERATURE. Jurnal Pedagogiki i psixologii v sovremenном obrazovanii, 1(1). izvlecheno от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1366>
9. Jumanova, N. (2020). AKTUAL’НЫЕ ВЫЗОВЫ SOVREMENNOY NAUKI. Arxiv Nauchnyx Publikatsiy JSPI.
10. Obidova, D., & Nasiba, J. ANALYSIS OF THE ACTIVITIES OF HEALTH CARE INSTITUTIONS: PROSPECTS FOR THE APPLICATION OF PSYCHOLOGICAL KNOWLEDGE.
11. Atamurodova, R. K., Jumanova, N. SH., & Alimkulov, S. O. U. (2016). Vzglyadы uchyonых srednevekovъya o dushe cheloveka. Problemy pedagogiki, (8 (19)).
12. Sherboevna, N. J. (2020). THE USE OF INTEGRATED TECHNOLOGIES IN THE CULTIVATION OF CHILDREN’S SPEECH IN PRESCHOOL EDUCATION. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 8(2).
13. Jumanova, N. (2023). O‘SMIRLARDA STRESSNING PAYDO BO‘LISHI VA UNING OLDINI OLISH VA BARTARAF ETISH USULLARI. Jurnal Pedagogiki i psixologii v sovremenном obrazovanii, 3(2). izvlecheno от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8332>
14. Jumanova, N., & Hamidova, M. (2023). O’QUVCHILARINING O’QUV MOTIVLARINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI. Jurnal Pedagogiki i psixologii v sovremenном obrazovanii, 3(2). izvlecheno от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8338>
15. Jumanova, N., & Hamidova, M. (2023). O’QUVCHILARNING O’QUV FAOLIYATI JARAYONIDA KASBIY MOTIVATSİYASINI RIVOJLANTIRISH. Jurnal Pedagogiki i psixologii v sovremenном obrazovanii, 3(2). izvlecheno от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8343>